

BUYUK SOSOXIBQIRON AMIR TEMUR DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT

Aminjonova Maxbuba Axmedovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika Universiteti

“Ijtimoiy gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi (tarix) fakulteti magistri

E-mail: mahbubaaminzonova@gmail.com

ANNOTATSIYA.

Maqolada buyuk soxibqiron Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fam va madaniyat masalalari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Marosim, ilm-fan, madaniyat, raqs, san’at, me’morchilik, she’riyat, renesans, musiqa.

НАУКА И КУЛЬТУРА ВО ВРЕМЕНА АМИРА ТИМУРА, ВЕЛИКОГО САХИБКИРАНА

АННОТАЦИЯ

В статье говорится о великом знатоке Амире Темуре и проблемах науки и культуры в период Тимуридов.

Ключевые слова. Ритуал, наука, культура, танец, искусство, архитектура, поэзия, ренессанс, музыка

SCIENCE AND CULTURE IN THE TIME OF AMIR TIMUR, THE GREAT SOKHIBQIRAN

ABSTRACT

The article talks about the great connoisseur Amir Temur and the issues of science and culture during the Timurid period.

Keywords. Ritual, science, culture, dance, art, architecture, poetry, renaissance, music

KIRISH

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq yurtimizda tarixni yozma manbalar asosida holisona tadbiq etishga e’tibor kuchayib, ajdodlarimiz tomonidan uzoq o‘tmishda yaratilgan madaniy-ma’naviy me’rosni o‘rganish va targ‘ib qilish dolzarb vazifa qilib qo‘yildi.

Jahonga yuz tutib ilm-fan va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ajdodlarimizning pok nomlari qayta tiklandi. Buyuk sarkarda ilm fan, madaniyat homisi va davlat arbobi bo'lgan Amir Temur ana shunday tarixiy shaxslardan biri bo'lib, u markazlashgan davlatga asos solish bilan birga uni mustahkamlab rivojlantirib bordi. Uning hukmdorlik yillarida madaniyat, ilm fan, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa va she'riyat yuksak cho'qqiga ko'tarildi. O'sha davr madaniyatining, ilm-fanning har tomonlama rivojlanib borishi temuriylar davri renesansiga asos soldi.

Amir Temur Movaraunnahrda ilgaritdan mavjud an'analarni davom ettirib, o'zining har bir g'alabasini bayram bilan nishonlagan. Uning davrida madaniyatning turli jabhalari rivojlanib, oilaviy marosimlar va xalq bayramlari juda ham keng ko'lamda nishonlanganligini tarixiy manbalardan topishimiz mumkin. Zaxiriddin Muxammad Boburning "Boburnoma", Zayniddin Vosifiyning "Badoe' ul-vaqoye", Xondamirning "Makorim ul-axloq", Xasanxo'ja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" kabi asarlarida temuriylar davri tomosha san'atlari, bayramlari to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Alisher Navoiyning ko'plab ijodida temuriylarning an'anaviy teatr, raqs va sirk bo'yicha ma'lumotlar, Abu Abdullox Xorazmiy, Abu Nasr Farobi, Abu Aliy ibn Sino, Abduraxmon Jomiy, Darvesh Ali Changiylarning asarlarida esa raqs usullari haqida ma'lumotlar uchraydi.

Amir Temur va temuriylar xukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ta'limga e'tibor, ilm-fanga homiylik davlat siyosatiga aylandiki, barcha shaharlarda oliy ta'lim dargohlari madrasalar barpo etilib, o'z davrining etuk olimu-ulamolari tolibi ilmlariga dars berishga jalb etildi. Sohibqironning saltanat ma'murlari oldiga "Katta kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqolar bino qilsinlar"; "Mudarrislар va shayxlarga kundalik maoshlarini belgilasinlar"; "sayyidlar, ulamo, mashoyix, fuzalo, ulug'larni aziz tutsinlar", degan vazifani qo'yganligi "Temur tuzuklari"da ham aks etgan. Amir Temurning bu topshirig'i tabiiyki butun saltanat doirasida ijro etilgan. Bu esa o'z o'mida Amir Temur va temuriylar davri qadim Turon o'lkasida madaniyat va ta'lim tizimi, ilm-fan yuksak rivojlangan davr sifatida ahamiyatli bo'lib, Mavorounnahr va Xurosondagi madaniy taraqqiyotning tamal tojini Amir Temurdek buyuk sarkarda qo'ydi va temuriylar davri renesansi rivoji bevosita Amir Temur asos solgan ulkan saltanatda adolatli boshqaruv tizimi barpo etilganligi katta o'rinn tutgan.

Amir Temur buyrug'i bilan madrasalarda diniy ilmlar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar ham o'qitilishi yo'nga qo'yildiki, alal oqibat Turon yurtidagi madrasalarga dars berish ucunun Islom dunyosining taniqli olimu-ulamolarining madrasalarda dars berishga jalb qilingan va temuriylar saltanatida olimu ulamolar katta hurmat va mavqega ega ijtimoiy qatlamga aylanishgan.

Xazrat sohibqironning ilm-fan rivojiga g‘amxo‘rlik qilishi tufayli Samarqand dunyoning ma’rifiy markaziga aylandi. Mashhur olimlar: Qozizoda Rumiy, tabib Xusomiddin Kermoniy, falaqiyotshunos Mavlono Ahmad, Mirzo Ulug‘bek davrida turli mamlakatlardan kelgan yuzdan ortiq olimlar ilmiy va ijodiy faoliyat ko‘rsatgan.

O‘sha davrda soxibqironning buyrug‘i bilan Samarqandda yagona kutubxonada ham barpo etilgan edi. Ilm-fan va adabiyotning rivoji kitob san’ati, yangi qo‘lyozma asarlarni ko‘chirib yozish, xattotlik, musavvirlilik, lavha chizish kabi san’atlar taraqqiyotiga ham ijobjiy ta’sir qildi. XIV-XV asrlarda nafis kitob va xattotlik yangi bosqichiga ko‘tarildi va Rafiqiy, Abduraxmon Xorazmiy, Halvoiy, Sulton Ali Xandon, Mir Ali Qilqalam, kabi xattotlar, musavvirlar yetishib chiqdi.

Temur va temuriylar davrida yangi kuy va qo‘shiqlar, cholg‘u asboblari va musiqa nazariyasiga doir asarlar yaratilib, XIV-XV asrlar O‘rta Osiyo xalqlarining musiqa san’ati taraqqiyotida ham yangi bosqich bo‘ldi. Abduqodir Nayiy, Qulmuhammad Shayhiy, Ahmad Qonuniy, Husayin Udiy, Yusuf Andijoniy, Shohquli G‘ijjakiy kabi mahoratli sozandalar, bastakorlar va hofizlar yetishib chiqdi.

Amir Temur va uning davomchilarini adabiyot va san’atga, ilm-fanga yaqin kishilar edi. Temuriylardan 22 yafar ijodkor-shoir bo‘lib, ular o‘zları sher yozish bilan birga ijodkorlarga xomiyligini ham qilgan. Xalil Sulton, Husayn Boyqaro kabilar o‘z she’rlaridan devon tuzganlar.

Ushbu davrda badiiy hunarmandchilikning turli shakllarida ham yuksalishlar nomoyon bo‘ldi. Ayniqsa koshinkorlik kulolchiligi, yog‘och va tosh o‘ymakorligi ravnaq topdi. Yog‘och o‘ymakorligida Yassaviy maqbaralari, Go‘ri Amirda, Shohi Zinda eshiklari, shuningdek XV-asrga oid uy ustunlari naqshlar bilan ishlangan.

Amir Temur yurishlari davrida mamlakat poytaxti va markaziy shaharlarga boshqa joylardan me’mor, olimlar va tabiblar ham yuborilgan.

XIV-XV asrning sertarmoq bo‘lgan kulolchilik sohasida sirli sopol badiiy rang-baranglikda turli sohalarda ishlatilgan va turli bejirim buyumlar yaratishgan. Samarqandda shishasozlikdan keng foydalanib turli idishlar va rang-barang buyumlar yasalgan.

XV-asrda samarqand qurolozlik markaziga aylanib, metal buyumlari, ro‘zg‘or buyumlari, asbob uskunalar, quroq-yarog‘lar ko‘plab ishlab chiqarilgan. Zargarlar oltin, kumush va jez qotishmalaridan nafis zeb-ziynat buyumlari yasaganlar. Misgar va chilangarlar metalni toplash, quyish, ustiga naqsh solish va oltin, kumush suvi yuritish kabi ishlarni bajarganlar.

Amir Temur davlatining qudrati ayniqsa me’morchilikda nomoyon bo‘ldi. Sohibqiron davrining jahon sivilizatsiyasi tarixidagi yuksak o‘rnini baholashda uning faoliyatidagi bunyodkorlik ishlari, ayniqsa, yuqorida ta’kilaganimizdek me’morchilik va shaharsozlik san’ati alohida o‘rin tutadi. Buning isboti sifatida Oqsaroy peshtoqida

bitilgan “Qudratimizni ko‘rmoq istasang binolarimizga boq!” degan yozuv ham o‘sav davr me’morchilikdagi katta rivoj bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Temur sultanat poytaxti Samarqandni bezatishga alohida e’tibor berdi. Shaharda «Hisori», qal’a, ulug‘vor inshoatlar va tillakor saroylar bunyod ettirdi.

Shaharda me’moriy majmular shakllanishi Temur va temuriylar davrining eng katta yutug‘i bo‘lib, Mashhur Shoxizinda qabri, Go‘ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi, O‘qsaroy va boshqa bir qator obidalar hanuzgacha o‘z bunyodkorining salohiyatidan guvohlik berib turibdi.

Demak shuni ta’kidlab aytishimiz mumkinki me’morchilik taraqqiyotning yangi bosqichiga ko‘tarildi, inshootlar ko‘lami bilan birga uning shakli ham ulkanlashdi. Bu jarayon muhandislar, me’morlar va naqqoshlar zimmasiga yangi vazifalarni qo‘ydi. Amir Temurning bunyodkorlik ishlarini uning avlod ajdodlari, avvalo Mirzo Ulug‘bek davom ettirdi.

Amir Temur va uning avlodlari davrida Samarqand, Toshkent, Buxoro, Shaxrisabz, Qarshi, Turkiston, Xirot, Mashxad, Nishapur, Qobul va shu kabi boshqa shaharlarda buyuk yaratuvchilik iiishlari olib borilgan edi. Ayniqsa Samarqandni dunyoning eng go‘zal va obod, ko‘rkam shahriga aylantirib, bu afsona shaharning dovrug‘ini butun dunyoga doston etdi. Oradan bir necha yuz yilliklar o‘tgan bo‘lsada Buyuk sohibqiron va uning avlodlari bunyod etgan inshootlar o‘z go‘zalligi va mahobati bilan dunyo tamaddunining nodir durdonalaridan biri bo‘lib turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Temur tuzuklari. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi 1991 y.
2. Zayniddin Vosifiyning “Badoe’ ul-vaqoye” (Nodir voqealar). T., G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 1979 y.
3. Sharafiddin Ali Yazdiyning zafarnoma kitobi. Toshkent 1994 y.
4. Temur va temuriylar sultanati. Qomuslar bosh tahriri, Toshkent 1994 y.
5. Temurning me’moriy me’rosi. Glavnaya redaksiya ensiklopediy, Toshkent 1996 y.